O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI

Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

6 YOSHLI BOLALARNI INDIVIDUAL VARIATIVLIK ASOSIDA MAKTABGA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI



BUXORO – 2021

Ushbu metodik qo‘llanma maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilariga metodik yordam sifatida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

G.T. Yadgarova - Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri, (PhD) ps.f.n

N.H.Aslanova - Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi o’qituvchisi

Taqrizchilar:

B.R.Adizov – Bux DU professori

U.A.Qosimov – Ps.f.n, dotsent

So‘z boshi

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori barkamol avlod ta’lim-tarbiyasini sifatli bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bolalarni maktabga sifatli tayyorlash ishlarini tubdan yaxshilash, ularning intellektual, axloqiy–estetik va jismonan rivojlanishi uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, tarbiyachi-mutaxassis, pedagoglarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga doir o‘quv reja, dasturlarni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, makabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha, boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasining mudiri ps. f. n. G.T.Yadgarova hamda o‘qituvchi-tadqiqotchi N. Aslanovalar tpmonidan tayyorlangan “**6 YOSHLI BOLALARNI INDIVIDUAL VARIATIVLIK ASOSIDA MAKTABGA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**” nomli metodik qo’llanmasi pedagog-tarbiyachilar hamda ota-onalar uchun bolalarni maktab ta’limiga samarali tayyorlash maqsadida yozilgan bo‘lib, ushbu qo’llanma maktabgacha ta’lim yoshidagi tayyorlov guruh bolalarining aqliy hamda psixologik imkoniyatlarini rivojlantirishda amaliy yordam beradi.

B.R.Adizov – Bux DU professori

6 YOSHLI BOLALARNI INDIVIDUAL VARIATIVLIK ASOSIDA MAKTABGA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Chaqalolar hamma yerda bir xil yig‘laydilar, ulg‘ayganlarida ularda xilma-xil odatlar hosil bo‘ladi. Bu - tarbiyaning natijasi…

Syun-Szi

Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi. Bola shaxsiga yo’naltirilgan ta’limning markazida o’sayotgan inson, uning o’z imkoniyatlarini to’la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas’uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo, shaxsni ko‘rishi zarur”, - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o’z ma’ruzalarida. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, har birimiz farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta’lim- tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta’lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida mamlakatimizda 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktabga sifatli tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” variativ dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur maktabgacha

ta’lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha Milliy dastur”, maktabgacha ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi asosida ishlab chiqildi.

Bu esa maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitni shakllantirishni taqozo etadi. Maktabgacha davr - bu bolada motivatsiya, o‘z-o‘zini namoyon etish, nimanidir bajarish hohish-istagi, intilishi rivojlanadigan davrdir. Ushbu davrda bola shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Ta’lim strategiyasi esa maktabgacha ta’limning yuqori sifatini kafolatlashi kerak.

Chunki aynan maktabgacha ta’lim davrida bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida, umuman hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi. Bularning barchasi bolaning shaxsiy faolligi orqali rasm chizish, qurish-yasash, musiqa va boshqa faoliyat turlari jarayonida rivojlanadi. Yosh jihatdan “kichik inson” shaxs sifatida rivojlanadigan bir qancha faoliyat turlari o’yin-ta’lim tariqasida olib boriladi. Shundan kelib chiqib, o‘yinli ta’lim - kichik bolalarni tarbiyalashdagi an’anaviy va taniqli uslub bo‘lib, u bolaning tabiiy ehtiyojlari va xohish-istaklariga mos kelishi lozim. Shuning uchun bolalar real hayotda hali bilmagan narsalarini o’yin jarayonida o’rganadilar. Ayniqsa, hali o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olmaydigan va ongli ravishda unga erisha olmaydigan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin juda ko’p narsalarni o’rgatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘zining asosiy vazifasi etib har bir bola shaxsini maksimal rivojlantirish va uning keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta’minlash maqsadida bolalar bog’chasida ijobiy psixologik muhit va sharoit yaratishni belgilaydi.

Ota-onalar va tarbiyachilardan talab qilinadigan narsa esa sabr, mehr va ilmiy asoslangan holda bola tarbiyasiga yagona yondashuvdir. To‘g‘ri yo‘nalishda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qo’yishga tayyor bo‘ladi.

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, bolaning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy xulqi rivojlanishida ilk bolalik davri o‘ta muhim hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta’limda quyidagilar inobatga olinadi:

• Bolalarga muloqot qilish, o‘rganish va rivojlanish uchun jismoniy, ijtimoiy, psixologik imkoniyatlar tug’ilganida beriladi. Agar bu imkoniyatlar aniqlanib, rivojlantirilmasa va qo’llab-quvvatlanmasa, bu imkoniyatlar asta-sekin so‘nib boradi.

• Bolaning rivojlanishiga qanchalik erta e’tibor berilsa, shunchalik yaxshi, chunki bolaning rivojlanishi tabiiy hodisa hisoblanadi. Agar bolaning oziqlanishi yoki sog’ligiga xavf solinadigan bo‘lsa, uning rivojlanishi kechikadi yoki zaiflashadi.

• Bola tug‘ilganidan ota-onasi, akasi, opasi, yaqin qarindoshlari va tarbiyachisidan oladigan mehr-muhabbati to‘liq bo‘lishi kerak va bu bolaning mukammal, sog‘lom o‘sishiga yordam beradi. Yaqin insonlaridan doimiy ravishda mehr olib turgan bolalar bunday

imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yaxshi o‘sadilar va rivojlanadilar.

• Bolaga uning ilk oylarida ko‘rsatilgan mehr-muhabbat va parvarish uning kelajakdagi hayotida insonlarni sevishiga va doimiy hurmatga asoslangan mustahkam aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi.

• Yosh bolaning sog’ligi va ovqatlanishini nazorat qilish, ilk bolalik davridagi ta’limda ko‘proq muloqotni ta’minlash, bolaning jamiyatga oson moslashishiga olib keladi.

• Bolaning har bir bosqichdagi ehtiyojlari asosan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi, bunda ota-onalarning o‘rni va roli katta bo‘ladi.

• Bolaning jismoniy, ijtimoiy-hissiy, aqliy, “bilish” (idrok etish), nutq, muloqotchanlik ko‘nikmalari tobora rivojlanib, o‘sib boradi va bu holat qobiliyatlarning rivojlanishida, muloqot, o‘yin va o‘rganishda ko‘rinadi.

Maktabgacha yosh davrida bolaning rivojlanishiga to‘g‘ri yondashuv uning aqliy va jismoniy faoliyatidagi kamchiliklarini bartaraf etadi. Bunda:

• Ilk davrda bola samarali rivojlanishi uchun unga doimiy e’tibor bo‘lishi kerak.

Bolaga ota-onalarning mehri va ilm olishiga e’tibori kelajakda uzoq yillar davomida faqat ijobiy ta’sir qiladi. Bunga quyidagilarni misol qilsak bo‘ladi:

- ✓ maktabdagi yuqori o‘zlashtirish;

- ✓ takrorlashning kamayishi;
- ✓ o‘smirlik davrida jinoyatning kamayishi;
- ✓ ishga joylashishning oshishi.

Tug’ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning rivojlanishiga e’tibor berish uzoq yillar davomida o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatadi. Davomiy va uzoq muddatli natijaga erishish uchun tinimsiz bir necha yil harakat qilish kerak. Lekin, shunga qaramay, juda intensiv bo‘lmagan andozalar ham bolaning kognitiv rivojlanishini o‘stirishda foydali hisoblanadi.



“Ilm yo’li” dasturining maqsadlari va vazifalari maktabgacha bolalar uchun quyidagilarni ta’minlashni ko‘zda tutadi:

-zarur bo‘lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;

- 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlar bolalarini to‘liq kunli maktabgacha ta’lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoki muayyan sabablarga ko‘ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishi kerak;

- 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlar maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashi zarur (jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga mo‘ljallangan;
- maktab ta’limiga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

- istisnosiz barcha bolalarning ta’lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga;
- amaliyotga bola yo‘naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta’lim tamoyillarini joriy etishga;
- oila va jamoalar bilan hamkorlik;
- ta’lim-tarbiyaning madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni e’tiborga olish;
- qulay, do‘stona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta’lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yo‘naltirilgan ta’limga yondashuvi;
- inklyuziv ta’lim haqida mushohada yuritish;

- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta’minlaydigan ta’lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyatning yetakchi turi – o‘yin asosida ta’lim berish;
- bola – ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni
- hamkorlik asosida jalb etish;
- interfaol ta’lim;
- integrativ o‘qitish.

Bu vazifalar nafaqat rivojlanish markazlardagi faoliyat jarayonida, balki mustaqil, o‘yin jarayonida hamda pedagoglarning ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida ham to‘liq bajarilishi lozim.

Samarali maktabgacha ta’lim tajribalari salomatlik va ovqatlanishga katta ahamiyat berish bilan ajralib turadi. Ilk ta’limga qatnashgan bolalarning ota-onalari bolaning ta’lim mashg‘ulotlariga ko‘proq aralashadigan bo‘ladi. Ta’lim jarayoniga ota-onalarning jalb qilinishi bolaning birinchi sinfdagi akademik natijalari va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Agar bolalarga maktabgacha yoshda yoshiga mos ravishda ta’lim berilsa, bunday bolalar 19 yoshigacha bo’lgan davrda o‘zini ijtimoiy jihatdan tez tiklab oladi. Bu bolalarda to’g’ri va ongli kasb tanlash, hayotda o’z qiziqishlariga asoslanib mos yo’lni tanlash imkonini beradi.

6 YOSHDAN 7 YOSHGACHA BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR

Fiziologik rivojlanish

Mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo‘linmalarning rivojlanishi va differensirovkalanishi ro‘y beradi. bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo‘yi o‘sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o‘zgara boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo‘yi o‘rtacha 113-122 sm ga, o‘rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo‘ladi. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikanin rivojlanishi davom etadi. Qo‘l panjalari mushaklarning koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Qo‘l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko‘rish vositasi bo‘lib sanaladi.

Psixik jarayonlarning rivojlanishi

Bu yosh bosqichining o‘ziga xos tomoni bo‘lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o‘lcham to‘la o‘zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara

boshlaydi. Shuningdek, endilikda o‘ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo‘lishi lozim. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir vaqtning o‘zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo‘ladigan paytlarda xatolikka yo‘l qo‘yishlari uchrashi mumkin.

Diqqat. Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma’lum bir predmetlarga va ob’ektlarga yo‘naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko‘ra olishi mumkin.



Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo‘ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo‘ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o‘zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo‘ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama

rag‘batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo‘lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo‘ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o‘ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyligi, ko‘rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o‘rgatish mumkin.

Fikrlash. Ilgarigidek, yetakchi bo‘lib ko‘rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so‘zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so‘zlarn ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig‘ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo‘lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyligi mavjud bo‘lishi ma’lumdir. Maktabgacha bo‘lgan yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To‘la holda so‘zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o‘smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topa olishi mumkin bo‘ladi.

Tasavvur. Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o‘ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu fakat yaratuvchilik tasavvurlari bo‘ladi, ya’ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon

beradigan tarzda bo‘ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo‘lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir.

Nutq. Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo‘la boradi. So‘z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko‘p o‘qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo‘ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So‘z boyligi taxminan 3 000 ta so‘zgacha boyib boradi.

Shaxs rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o‘zgarish bo‘lib “*harakatlar ichki rejasi*”ning paydo bo‘lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko‘rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

Bolaning o‘z-o‘zini anglashida “Men” obrazini anglashi refleksif qobiliyatini belgilaydi, ya’ni, tahlil qilishi, o‘z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o‘z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma’nan rivojlanishining asosi bo‘lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo‘ysundirilishi hisoblanadi. “Men qilishim kerak”, “men qila olaman” motivlarining anglanishi “men xohlayman” motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

O‘z “Men”ini anglash va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo‘lishi yangi ehtiyojlarni tug‘diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo‘lib hisoblangan o‘yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to‘la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o‘z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o‘z o‘rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya’ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – “*maktab o‘quvchisi o‘rnini*”ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o‘ziga xosligi bo‘lib sanaladi.



6-7 yoshda bola o‘zini nafaqat uning o‘zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o‘zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o‘z o‘rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo‘lgan shaklda) qobil bo‘ladi: o‘zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub’ekt sifatida tushunish – o‘zining ijtimoiy “Men”ini anglash paydo bo‘ladi.

O‘z-o‘zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko‘ra, o‘zini ko‘ra olish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bunda bola tashqi baholashga

juda bog‘liq bo‘ladi, chunki u o‘zi haqida ob’ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo‘lmaydi, u o‘zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o‘z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar yaxshi, va birinchi bo‘lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo‘ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o‘zgarib qolishiga yorqin va emotsional ravishda reaksiya ko‘rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi ehtiyoji bo‘lib ham o‘z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek yetakchi faoliyat bo‘lib syujetli-rolli o‘yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi o‘yinlarning o‘ziga xosligi bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o‘zaro harakatlarini o‘zlashtirishni va uni amalga oshirib ko‘rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko‘rishni boshlaydilar.

O‘yinlar murakkablasha boradi, ba’zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo‘ladi. Bunda bolalar butun o‘yin maydonini to‘la kuzatib turishga, o‘yindagi barcha ishtirokchilarni ko‘rib turishga va zaruriy o‘yin harakatlariga bog‘liq bo‘ladigan o‘z xulq-atvori yoki rolini o‘zgartirib turishga qodir bo‘ladilar.

6-7 yoshli bolaning muloqoti

Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya’ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki “nima bo‘ldi” yoki “nima bo‘ladi” tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo‘ladi. Muloqotning asosiy

mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo‘ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarning tashuvchisi bo‘lib sanaladi. muloqot jarayonidagi yetakchi ehtiyoj – o‘zaro tushunish, his-tuyg‘ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o‘zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o‘rtoqlashadi. Ota-onalar hamda pedagoglaning asosiy vazifasi bolaning emotsiyalarini ularning bola hayoti uchun ahamiyatliligini kamaytirmagan holda qabul qilishdan iboratdir.

Tengdoshlari bilan muloqotda bola yoshining quyidagicha namoyon bo‘lishi ifodalanadi:

muloqot tashabbusini boshlash;

birinchi yaqinlik;

biri-biriga, tan olinishga va hurmatga ehtiyoj;

musobaqalashuv tarzidagi taqlid qilish;

sherikka nisbatan yuqori sezuvchanlik (ranjish, qarshilik, janjal);

guruhda bolalarning tutgan o‘rni bo‘yicha farqlanishi paydo bo‘ladi.

7 yoshlarga kelib bolada maktabgacha bo‘lgan yosh davri tugaydi. Bu davrdagi asosiy ko‘nikmalar bo‘ilb quyidagilar sanaladi:

bola tomonidan odam turmush madaniyati predmetlari va narsalari dunyosining o‘zlashtirilishi;

boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qila olish qobiliyati;

“maktab o‘quvchisi ichki hissiyoti”ning shakllanishi, ya’ni, ongli ravishda, u nima qilish kerakligi va kattalar undan nimani kutayotganliklarini to‘la tushuna olish bilan bolaning maktabga borish istagining paydo bo‘lishi.

Maktabgacha yoshda davomida bolalar narsalar dunyosini kishilik madaniyatining predmetlari sifatida o‘zlashtiradilar; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qilishni o‘rganadilar; ularda jinsiy identifikatsiyalanish rivojlanadi, maktab o‘quvchisi pozitsiyasi shakllanadi.



Maktabgacha bo‘lgan yosh oxiriga kelib bola endilikda bilishga doir va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo‘lib, bu unga maktabda keyinchalik muvaffaqiyatli o‘qishga imkon beradi

Bolalarga quyidagi inkoniyatlar yaratilishi lozim:

- Mustaqillikni rivojlantirishga imkoniyat.
- O‘z xulqini nazorat qilishni o‘rganishda yordam.
- O‘zi haqida qayg‘urishni o‘rganish uchun imkoniyat.
- O’yin va tadqiqot uchun imkoniyat.
- Boshqa bolalar bilan birgalikdagi o‘yinlar.
- Bolaga turli hikoyalarni doimiy so‘zlab berish.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bola shaxsining har tomonlama, ya’ni ham huquqiy, ham ma’naviy, ham ijtimoiy himoyasi ta’minlanadi. Jamiyatda bolaning ta’limi va tarbiyasi, uni jismoniy, ruhiy va ma’naviy kamolga yetkazish davlat siyosatining ustuvor

yo’nalishlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishishda uning bilim olishga qiziqishini oshirish asosiy omil hisoblanadi.

Bolaning dastlabki olti yoshi uning keyingi rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Rivojlanishning har bir sohasini tushunish, bola qobiliyati va tarbiyasini baholashda foydali tushunchalarni beradi. Bolalarning shaxsiy yutuqlari shu sohalarga bog‘liq. Rivojlanishning har bir sohasi bir-birini taqozo etadi.

Bolaning to‘laqonli komil inson bo‘lib ulg‘ayishi haqidagi qarashlar inson o‘sishi va rivojlanishining barcha sohalari bir-biri bilan o‘zaro bog‘langanligi tamoyiliga asoslanadi. Bolaning o‘sish va rivojlanish sohalari bir-biri bilan bog‘liq va doim bir-birini qo’llab-quvvatlaydi. Har qanday malaka, oddiy yoki murakkab bo‘lsin, boshqa malakalar bilan birga rivojlanadi. Ya’ni bitta sohadagi rivojlanish ikkinchi sohaga ta’sir qiladi. Shuning uchun ham har bir sohaga to‘g‘ridan to‘g‘ri va aniq murojaat qilinsa, o‘rganish va tajriba orttirish oson kechadi. Bola rivojlanishining bosqichlari turli xildir, ya’ni bir bola bir holatda tez rivojlansa, ikkinchisi boshqa bir sharoitda rivojlanadi. Har bir rivojlanish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bir sohadagi maqsadlarga erishish, o‘z-o‘zidan ikkinchi sohaning maqsadlariga ta’sir qiladi. Masalan, agar biror narsani bola o‘zi mustaqil iste’mol qila olsa, qo‘l-motor ko‘nikmalari, ko‘z-ko‘l muvofiqligi, e’tibor, hissiy ta’sirlar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish (qo‘llab-kuvvatlash, maqtov, o‘ziga ishonch), nutq va lug‘atni (taom, idishlarning nomi) rivojlantiramiz. Xuddi shu tarzda nutqning

qanchalik rivojlanganligi bolaning kattalar va tengdoshlari bilan munosabatga kirishish yoki kirisha olmasligiga sabab bo‘la oladi.

Shuni doimiy ravishda esda tutish lozimki, rivojlanayotgan hamma sohalar o‘ta muhim hisoblanib, bir-birini o‘zaro to‘ldirib boradi. Hech qaysi soha mustaqil ravishda rivojlana olmaydi va har bir ko‘nikma sodda bo‘ladimi yoki murakkabmi, boshqa ko‘nikmada o‘z ifodasini topadi. Rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘likligidan tashqari, integratsiya yondashuvi ham bola rivojpanishiga taalluqli hamma sektorlarni o‘zaro bir-biriga bog‘lab yuboradi, ular - ta’lim, e’tibor va himoyadir.

6-7 yoshdagi maktabgacha bo‘lgan bolaning umumiy asosiy kompetensiyalariga quyidagilar:

Kommunikativ kompetensiya–muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi;

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi (o‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi);

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati;

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish kompetensiyalari kiradi.

Bola rivojlanishi sohalarining kompetensiyalari quyidagicha belgilangan. Bular quyidagi rivojlanish sohalarida aniqlanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

JISMONIY RIVOJLANISH VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH SOHASI KOMPETENSIYALARI

“ Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunida 6-7 yoshli bola :

- jismoniy rivojlanishdagi o‘z imkoniyatlari va yosh me’yorlariga mos holda jismoniy faollikni namoyon qiladi;
- koordinatsiyalashgan va maqsadli holda harakatli faollikning har xil turlarini amalga oshira oladi;
- turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- sezgi organlari yordamida o‘z harakatlarini tartibga soladi;
- shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini qo‘llaydi;
- sog‘lom turmush va to‘g‘ri ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyati qoidalariga rioya qiladi.

Jismoniy o‘sish bolalik va go‘daklikning asosiy masalasidir. Jismoniy o‘sish shaxsiy jarayon bo‘lib, unda bola tanasining o‘lchami shakllanadi. O‘sish bu - rivojlanish sohalari bilan bog‘liq jarayondir.

Bolaning jismoniy rivojlanish holati uning umumiy sog‘ligi va yaxshi rivojlanishini ko‘rsatadi. Bolaning har bir rivojlanish sohasidagi yutug‘i uning jismoniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tana rivojlanishi bu - bolaning tana a’zolarini ishlata va boshqara olish qobiliyatidir. Tana rivojlanishini o’stirib borish miya faoliyati, sezgi organlari, vazn oshib borishi va muskul tolalarining soniga, sog‘lom nerv tizimiga bogliq;

Bolaning ilk hayoti davomidagi sog’ligi va yaxshi rivojlanishi o‘sish va rivojlanish jarayonining eng muhim omili hisoblanadi. Bola o‘sishi va rivojlanishi juda murakkab jarayon bo’lib, maxsus jismoniy o‘zgarishlar, ya’ni tana og‘irligi, bo‘y va tana o‘lchamlarini talab qiladi, har bir bolada o‘ziga xos ko‘rsatkichni namoyon qiladi. Me’yorda jismoniy rivojlanish, sog‘lik va salomatlik zamirida faol hayot va sog‘lom turmush tarzi yotadi. Faol harakat va jismoniy rivojlanish miya rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Jismoniy sog‘lik kuch, quvvat, biror ma’lumotni o‘rganishda chidamlilik va tayyorgarlikka asoslanadi.

Tana rivojlanishi til rivojlanishi, aqliy jarayon, ijtimoiy va hissiy qobiliyatlar bilan bog‘liq. Tana rivojlanishi yosh bolada o‘z tanasida yangi qirralarning ochilishi demakdir. Bolaning o‘z maqsadlari va tana a’zolarining oddiydan murakkabga harakatlanishini ko‘rsatish uchun vaqt, amaliyot va ko‘mak zarur bo‘ladi. Yugurish, yurish, sakrash va boshqa murakkabroq mashg‘ulotlardan yozish, chizish, qirqish, kiyinish va ovqatlanish bilan uzviy ravishda davom etishi kerak.

Bunda bolalar go‘dakligidan boshlab sog‘lom hayot tarzi nima ekanligini o‘rganib boradi. Uxlash, yuvinish, kiyinish va boshqa jismoniy zaruriyatlar tug‘ilgandan boshlab bolaning umri davomida

kasalliklardan saqlanishga zamin hozirlaydi. Bolalar bu davrda xavfli vaziyatlardan ehtiyot bo‘lish yoki biror falokatdan jabr ko‘rmaslik yo‘llarini ham o‘rganib borishadi.

“IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH” SOHASI KOMPETENSIYALARI

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi.

Ijtimoiy va hissiy rivojlanish keng tushuncha bo‘lib, unda bola o‘zi va atrofdagilarning munosabatini his qila boshlaydi. Bu ularning ota-onasi, mashg’ulotlar davomida tengdoshlari bilan munosabatida bilinadi. Jinsga munosabat, mustaqillik, axloq va ishonch ijtimoiy-hissiy rivojlanishning dastlabki shartlari hisoblanadi. Bolaning hissiyoti atrofdagi hodisalarga turli munosabatidan kelib chiqib rivojlanadi. Demak, bu davrda bola o‘rganadigan hissiyotlar

- fikrini izhor qilish;

- qabul qilish va tushunish;

- hukm chiqarish ko‘nikmasi;

- o‘zining hislarini nazorat qilish qobiliyati. Bularning hammasi o‘ziga e’tibor berish vazifalarida namoyon bo’ladi.

Bolaning o‘z his-tuyg‘ularini anglashi, izhor etishi, boshqarishi va nazorat qilish ko‘nikmalari uning hissiy rivojlanishida boshlang‘ich qadam hisoblanadi. Bu jarayonda o‘zini anglashni rivojlantirish xususiyati, qobiliyatlari, motivatsiyasi, ehtiyoji, qiziqishlari va ijtimoiy o‘rni muhim ahamiyatga ega. Bola o‘sishi bilan u “Men kimman?” kabi savolni beradi. Shu bilan birga, bolaning o‘ziga ishonchi, ya’ni qilmoqchi bo‘lgan ishini qila olishiga ishonchi, bolaning o‘rganishga, kashf qilishga qiziqishini orttirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oddiy hissiyotlar (xursand bo‘lish, qo‘rkuv, jahl va x,.k.)dan murakkab (mag‘rurlanish, uyalish va o‘zini aybdor his qilish kabi) hissiyotlargacha bo‘lgan jarayonning barchasini bola his qiladi, o‘rganadi va munosabat bildiradi.



Ilk davrdan boshlab bolalar ijtimoiy hayotlarini his qila boshlaydilar. Bola ota-onasi, oilasi, kattalar va bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Hissiy va ijtimoiy rivojlanish bir-biri bilan

o‘ta bog‘liq. Bolalar turli xulq-atvorlarni tushunib ijobiy ijtimoiy rivojlanadilar. Bolaning boshqalar bilan muloqotga kirishi uning ijtimoiy va hissiy “sog‘lom” bo‘lishini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Chunki, bular xavfsizlik, tegishlilik hissini beradi. Asta-sekin bolalar hamkorlik ko’nikmalari, muzokara ko’nikmalari va yetakchilik ko’nikmalarini shakllantiradilar.

Kattalar bilan ijtimoiy munosabatga kirishish bolalarda ishonchni uyg‘otib, kattalar yordamida turli ijtimoiy hodisalar va ularning jamiyatdagi o’rnini bilib oladilar. Bu aloqalarning sifati bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Hissiy va ijtimoiy rivojlanish bir-biri bilan o‘ta bog‘liq. Bolalar turli xulq-atvorlarni tushunib ijobiy ijtimoiy rivojlanadilar. Ular turli tushunchalarni anglash jarayoniga kirganlarida, guruh mashg’ulotiga jalb qilingan hisoblanadilar. Bolaning boshqalar bilan muloqotga kirishi uning ijtimoiy va hissiy “sog‘lom” bo‘lishini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Chunki, bular xavfsizlik, tegishlilik hissini beradi. Bola boshqalar bilan muloqotga kirishganda e’tiborli munosabat talab qilinadi. Asta-sekin bolalar hamkorlik ko’nikmalari, muzokara ko’nikmalari va yetakchilik ko’nikmalarini shakllantiradilar.

«NUTQ, MULOQOT, O‘QISH VA YOZISH MALAKALARI» SOHASI KOMPETENSIYALARI

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;

- o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

Nutq, muloqot va savodxonlik insonning global rivojlanishidagi dastlabki qadam hisoblanadi. Nutq va savodxonlik ko‘nikmalarini ko‘lga kiritish murakkab jarayondir. Unda bola so‘zlarning ma’nosini anglab, axborot almashishni o‘rganadi, ma’lumotni tushuna boshlaydi. Nutq, muloqot va savodxonlik bir-biri bilan juda bog‘liq bo‘lgani uchun ularning rivojlanishi qat’iy kuzatuvda bo‘lishi kerak. Nutqning rivojlanishi lug‘at, eshitish va grammatikaga bog‘liq. Asta-sekin nutqning rivojlanishi ijtimoiy hayotda nutqning konstruktiv ifodalanishiga olib keladi.

”BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI” SOHASI KOMPETENSIYALARI

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;

- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.



Kognitiv rivojlanish bolaning aqliy intellektual ko‘nikmalariga bog’liq. Kognitiv jarayon kashf qilish, tushunish, tanlash, guruhlarga ajratish va yodda tutish kabi aqliy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi yoshi kattaroq bolalarda idrok etish - fikrlarni baholash, qaror qabul qilish, qonun-qoidalarni tushunish va ma’lum bir ish harakatining kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilish kabi ko’nikmalar nazarda tutiladi. Qabul qilish jarayonini rivojlantirish axborotni quyidagi hislar – ko’rish, sezish, ushlab ko‘rish, hidlash, ta’m bilish va tana harakati orqali qabul

qilishning murakkab jarayonidir. Qabul qilish jarayoni bir yoki bir nechta hislar orqali olingan axborotning qaysi biri muhim, farklari nima kabi savollarga javob beradi. Qabul qilishning asosi tug'ilganda mavjud bo'ladi. Ulg'ayish, bilim olish va tajriba orttirish orqali bu jarayon murakkablashadi. Shuning uchun qabul qilishni idrok etishdan farqlash ko‘pincha qiyin. Natijada bu ikkala tushuncha idrok etish, qabul qilish deb yuritiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshida bolada mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich mavzuda bilim va ko‘ninmalar, aniq fanlar va dunyoni anglash kabi ulkan o‘zgarishlar yuz beradi. Asta-sekin bola kuzatish, tasavvur qilish va muammolarni yechish ko‘nikmalarini egallaydi. Shuningdek, nutq, mantiq, ijodkorlik, tana harakatlarida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham bolalar ta'limida quyidagilar inobatga olinishi kerak:

- ✓ tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va muammolarni yechish uchun predmetlar, insonlar va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish;
- ✓ raqam, hisob-kitob, o‘lchov, guruhlash, tanlash kabi kundalik hayotga zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirish.

«IJODIY RIVOJLANISH» SOHASI KOMPETENSIYALARI

"Ijodiy rivojlanish" sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;

- milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;
- san’atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Rivojlantiruvchi yondashuv – bolaning tabiiy ravishda ulg‘ayishining muhimligini baholash va tahlil etish imkoniyatini yaratadigan rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv. Bu yondashuvga muvofiq bolalar:

- o‘yin jarayonida atrof muhit haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirib, faol ta’lim oladi;
- rivojlanishning qonuniy bosqichlarini bosib o‘tadi;
- hissiy va kognitiv(aqliy) rivojlanishi uchun ijtimoiy o‘zaro munosabatlarga ehtiyoj sezadi. Har biri o‘ziga xos sur’atda, betakror shaxs sifatida rivojlanadi.

RIVOJLANTIRUVCHI O‘QITISH MUHITI

Bu faollikning har-xil turlari bilan to‘ldirilgan ta’lim jarayonini amalga oshirish bo‘lib, u funksionallik, bolalar uchun qo‘llanmalar va materiallarning ommabopligi, ko‘p bo‘g‘inlilik (turlicha rivojlanish darajasiga ega bolalarning o‘z-o‘zini yuzaga chiqarishlarini ta’minlaydi) va ko‘p funksionallilik (bolalarning har xil faoliyat turlariga jalb etilishini ta’minlaydi) bilan ajralib turadigan rivojlantiruvchi muhitning ratsional tashkil etilishini talab qiladi. Bu

ayniqsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning mazmunli mustaqil faoliyati uchun o‘ta muhimdir.

Guruh xonasida bolalarning o‘z qiziqishlari bo‘yicha erkin mustaqil faoliyat uchun maydoncha ajratiladi. Bu syujetli o‘yin, tajriba va sinovlarni o‘tkazish, stol ustidagi va didaktik o‘yinlar, konstruksiyalarni yasash, qo‘l mehnati va badiiy faoliyat uchun ajratilgan past stellajlar, shkafchalar, shuningdek, kitoblar va albomlarni bemalol tomosha qilish, o‘qish mumkin bo‘ladigan kitoblar burchagi bo‘lishi mumkin.

Guruh xonasining jihozlanishi o‘z ichiga bolalarning ko‘z bilan yaxshi ko‘ra oladigan, yaqin kelib, ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladigan balandlikda osilgan yarim sharlar xaritasini, O‘zbekiston xaritasini, globuslarni, harakatlanadigan ikki tomonlama yozuv taxtasini olishi lozim bo‘lib, ulardan rasm chizish, yozish uchun mashg‘ulotlarda hamda sxemalarni, illustrativ materiallarni va shu kabilarni namoyish qilish uchun stend sifatida foydalanish mumkin. Yozuv taxtasidan barcha bolalar har doim foydalana oladigan bo‘lishi kerak.

Guruhlar xonalaridagi stenlarda va foyeda bolalarning ishlari ekspozitsiyalarini, shuningdek, ular mashg‘ulotlarda katta yoshlilar bilan birgalikda tayyorlagan jadvallar, pannolar va shu kabilarni joylashtirish imkoniyatini ko‘zda tutmoq kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotchi hududidagi guruhlardagi holat shunday yaratiladiki, bunga ko‘ra u bolaning tanlovni mustaqil amalga oshirishi imkonini berishi lozim. Har bir guruhning xonasi bi nechta markazlarga ajratilishi mumkin bo‘lib, ularning har birida o‘rganish va

o‘ynash, tajriba va sinov o‘tkazish, boshqa bolalar va kattalar bilan o‘zaro harakat qilish uchun yetarlicha miqdordagi materiallar mavjud bo‘ladi. Har xil guruhlarda markazlardagi to‘plamlar bolalarning yoshi, qiziqishlari, ehtiyojlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi, vaqt o‘tishi bilan ular almashtirilishi, bir markaz boshqasiga transformatsiyalanishi mumkindir. Masalan, syujetli-rolli markazi bir vaqtning o‘zida tasviriy faoliyat markazi bo‘lishi, boshqa vaqtda esa kitoblarni tomosha qilish va o‘qish markazi bo‘lishi mumkin. Lekin kitoblarni toza havoda ham o‘qish mumkin, shuning uchun maktabgacha ta’lim markazi hududini ham rivojlantiruvchi muhitning muhim tarkibiy qismi sifatida olib qarash kerak bo‘ladi. Maktabga tayyorlash bo‘yicha guruhlarda 5 tadan kam bo‘lmagan turli xil faoliyat markazlarini ko‘zda tutish tavsiya qilinadi[1].

Mahalliy xudud (mahalla)ning resurslarini ham yoddan chiqarmaslik lozim, shuning uchun pedagog bolalar bilan muzey, park, fermaga, tomorqaga sayohatlarni tashkil etishi, mehmonga chaqirishni rejalashtirishi lozim bo‘ladi.

Dastur rivojlantiruvchi muhit deganda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkiloti xonalarini, balki unga yondosh hududlarning, shuningdek, mahalliy xudud (mahalla)ning resurslarining ham tushunilishini taklif qiladi.

Bolalarning vaqt haqidagi tasavvurini kengaytirish, vaqtning xususiyatlari(davomiyligi)ni o‘rgatish oson ish emas, chunki bolalar

bugungi kun bilan yashaydilar. Biroq vaqtning harakatlanishini turli harakatli o’yinlar orqali bolaga o‘rgatsa bo‘ladi. Vaqtning to‘xtovsiz, ketma-ketlik jarayon ekanligini juda oson usul bilan tushuntirib berish mumkin.



Maktabgacha yosh davrida:

• Barcha psixik jarayonlar faol rivojlanadi:

• Nozik kechinmalar paydo bo‘ladi;

• Yangi hissiyotlar tushladi (estetik, intellektual, ma’naviy);

• Qiziqishlar shakllanadi;

• Xarakter asoslari vujudga kelib, iqtidor rivojlanadi.

Bola rivolanishining sur’ati qanchalik yuqori bo‘lsa, bolaning jismoniy va psixik sog‘ligiga shunchalik tez shikast yetkazish mumkin. Bola tanasidagi turli a’zolarning turlicha o‘sishi va rivojlanishi bola tanasining o‘lchamlari o‘zgarishiga olib keladi.

Miya ikki kismdan iborat: chap yarim shar va ung yarim shar.

Yarim sharlar orasida axborot almashish soniyada bir necha million tezligida amalga oshadi.

Miya yarim sharlari qanday ishlaydi?

Chap yarim shar dunyoni parchalarga bo’ladi va bu parchalardan dunyoni kuradi. Bu ratsional, tasniflovchi, mantiqiy tafakkur deganidir. Ung yarim shar dunyoni yaxlit, hodisalar, narsalar, voqealar xilma-xilligida qabul qiladi.

Bu obrazli, manzarali, intuitiv tafakkurning hamma tajribalarni qabul qilishga, ayniqsa, ulardan foydalanishga ochiq bo‘ladi. Agar bu kabi hissiy davrlar o‘tib ketsa, miya turtkilarni aytarli darajada qabul qilmaydi va o‘rganishning turli tajribalaridagi imkoniyatlar pasayib ketadi. Miyaning tormozlanishi - salbiy tajribalar ta’siri yoki yetarli darajada turtki berilmayotgani deganidir.

Maktabgacha davrdagi atrof-muhit miyaning rivojlanishiga uzoq ta’sir qiladi. Bu davrdagi yaxshi ovqatlanish, o’yinchoqlar va muloqotga turtki berilishi bola miyasining 15 yoshdagi faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi. Bunday holat yuz bermagan bolalarda esa salbiy holatlar yig‘iladi. Atrof-muhit nafaqat miya hujayra va bog‘lanishlarining soni, balki ularning qanday o‘ralishlariga ham ta’sir qiladi. Miya o‘z faoliyatini aniqlab olish uchun atrof bilan tajriba almashadi. Ilk tajribalar miya faoliyatining shakllanishida muhim sanaladi. Ilk davrda stress miya faoliyatiga salbiy ta’sir qilishi isbotlangan. Qattiq stressni boshdan kechirgan bolalarda turli aqliy rivojlanish muammolari, axloqiy va hissiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, miyaning ancha qismi tug’ilganda allaqachon shakllangan bo‘ladi. Dastlabki ikki yil ichida miya o‘sishi va neyronlar bog‘lanishi kuzatiladi. 6 yoshga kelib bu bog‘lanishlarning ko‘pchiligi amalga oshiriladi yoki, aksincha, amalga oshirilmaydi. Shunday qilib, ilk davrdagi murakkab anglash va motorikani tajribadan o‘tkazishga bo‘lgan imkoniyatlar keyinchalik hayotdagi o‘rganish qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Shaxsning rivojlanishida bolalik davri nihoyatda muhimdir, ayniqsa, bu davrda bola bilan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida ish olib borilsa, bolaning barcha rivojlanish sohalari qamrab olinadi va samarali natija kafolatlanadi. Shu sababli Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari bola shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim tamoyillari asosida ishlab chiqildi. Miyaga bog‘liq ilmiy izlanishlar doirasidagi yangiliklardan ilk ta’limda foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limiga to‘g‘ri yondashishga yordam beradi.

Hurmatli hamkasb, biz taqdim qilgan materiallar maktabgacha yoshdagi bolalarni barkamol qilib tarbiyalashda sizga yaqindan yordam beradi deb ishonamiz.

FARZANDINGIZ MAKTABGA TAYYORMI?

Ilk bor maktabga qadam qo‘yish – nafaqat bola uchun, balki ota-ona uchun ham katta sinovdir.

– Farzandni olti yoshdan maktabga berishning qanday ijobiy jihatlari bor?

Ko‘pchilik ota-onalar o‘z farzandlarini nisbatan ertaroq maktabga berishni orzu qilishadi. Chunki, bolalikda insonning zehni, xotirasi

kuchli, o‘zi harakatchan va faol, qiziqishlari esa cheksiz bo‘ladi. Bu davrda bolani har qanday muhitga odatlantirish, ko‘niktirish va uning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish mumkin. Hatto, bu orqali olamshumul yutuqlarga erishganlar ham bor. Bulardan xabar topgan ota-ona tabiiyki, o‘z farzandining ham bilag‘on yoki daho bo‘lishini xohlaydi.

Bola ulg‘aygan sari uning biologik o‘sishi sekinlasha boradi. Bu undagi harakatlarning ham bir qadar susayishiga olib keladi. Mana shu susayish davri boshlangunga qadar bolaning iqtidori yuqori darajada bo‘ladi. Bu davrda, masalan, o‘nta so‘zni ikki marta eshitganda eslab qolsa, keyinchalik esa uning esida qolishi uchun to‘rt-besh marta takrorlash kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham olti yoshda maktabga borgan bola bir yil ichida nisbatan ko‘proq narsa o‘rganadi.

– Bolaning maktabga tayyorgarlik darajasini qanday aniqlash mumkin?

Bolaning maktabga tayyorgarlik holatini aniqlashning bir nechta yo‘llari bor. Agar bolakay o‘qishni, sanashni bilsayu, bir oz odamovi, kamsuqum va faqat uy sharoitiga o‘rgangan bo‘lsa, maktabga borgach, o‘qituvchi va do‘stlari o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘nikishda muammo paydo bo‘lishi mumkin.

Farzandining olti yoshdan o‘quvchi bo‘lishini istagan ota-ona uning o‘qishga bo‘lgan rag‘bati, qiziqishi, ishtiyoqi va qobiliyatini oldindan kuzatib, tarbiyalab borishi kerak. Bolaning ko‘pchilik bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlar qoidalariga rioya qilishi, kattalar bilan muloqotga oson kirishishi, biror ishni o‘zi erkin tarzda yoki mustaqil yondoshuv bilan bajara olishi, o‘z zimmasida qaysidir darajada mas’uliyatni his

qila olishi, fikrlashdagi mantiqiylik kabilar bolaning maktab hayotiga tayyor ekanidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ko‘pgina olti yoshli bolalarning maktabga bo‘lgan qiziqishi keragidan ortiq bo‘ladi. Bunday hollarda ota-ona bu xohish ortiga berkingan muhim sababni o‘rganib chiqishi, maktab bolani nimasi bilan o‘ziga jalb etayotganini aniqlashi lozim. Bu o‘rinda yangi bilimlarni egallash, oiladagi o‘rni va nufuzining o‘zgarishi, kun bo‘yi uyda o‘tirishdan qutulish yoki chiroyli maktab anjomlariga ega bo‘lish kabilar bolani qiziqtirayotgan bo‘lishi mumkin.

– Olti yoshda maktabga chiqishga xohishi bo‘lmagan farzandga qanday muomala qilinadi?

Olti yoshli bolaning maktab muhitida o‘zini erkin sezishi ko‘p jihatdan ota-onalarga bog‘liq. Agar olti yashar bolaning maktabga borishga qiziqishi bo‘lmasa, bu holda uni majburlab o‘qishga berish kerak emas. Yaxshisi, unga maktabga borish va o‘qishning afzalliklarini tushuntirib borish vositasida unda yetarli xohish paydo bo‘lishini kutish kerak. Aks holda, ota-ona ham, bola ham qiynaladi va bolada maktabga ilk qadamlaridanoq salbiy kayfiyat shakllanadi. Keyinchalik bolaning o‘zlashtirish darajasidan qoniqmagan ota-onaning farzandining kelajagiga bo‘lgan umidlari bir oz pasayib, bolani ham shu holga solib qo‘yishadi. Shuning uchun bu masalada adashmaslik zarur.

FARZANDINGIZNI SINAB KO‘RING!

Ushbu test bolangizning bilish saviyasi qay darajada ekanini aniqlashda sizga yordam beradi. Bu orqali siz bolangizning o‘zi, oilasi, atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni qay darajada bilish, muhokama va tahlil qila olish qobiliyatini bilib olasiz.

1. Isming, familiyang, otangning ismini ayt.

2. Ota-onangning familiyasini ayt.

3. Qiz bolamisan, o‘g‘il bolami?

4. Akang yoki opang bormi? Ularning qaysi biri katta?

5. Yoshing nechada? Bir (ikki, uch...) yildan so‘ng necha yoshda bo‘lasan?

6. Hozir kunduzimi, kechasimi yoki ertalabmi?

7. Nonushtani qachon qilasan ertalabmi, kechki paytmi?

8. Qaerda yashaysan? Uy manzilingni bilasanmi?

9. Otangning va onangning ismlari kim?

10. Rasm chizishni yaxshi ko‘rasanmi? Bu qalam (kitob, devor) qaysi rangda?

11. Hozir qaysi fasl? Buni qanday aniqlasa bo‘ladi?

12. Chanada qachon uchsa bo‘ladi yozdami, qishdami?

13. Nimaga qor faqat qishda bo‘ladi?

14. Pochtachi (o‘qituvchi, vrach) nima qiladi?

15. Maktabda parta, qo‘ng‘iroq nimaga kerak?

16. Maktabga borging kelyaptimi? Nimaga?

17. O‘ng ko‘zingni, chap qulog‘ingni ko‘rsat. Bizga quloq, ko‘z nima uchun kerak?

18. Qanday xayvonlarni bilasan?

19. Qanday qushlarni bilasan?

20. Qaysi biri katta - sigirmi, echkimi?

21. Qaysi biri ko‘p 8 mi 5 mi? 3 dan 6 gacha, 9 dan 2 gacha sanab ber.

22. Birovning narsasini buzib qo‘ysang, nima qilish kerak?

Farzandingiz javob berishda 24-29 ball to‘plashi uning yuqori saviyada; 20-23,5 ball to‘plashi o‘rta saviyada; 19,5 va undan kam ball to‘plashi esa quyi saviyada ekanidan dalolat beradi.

E’tibor bering, qaysi guruhdagi savollar farzandingizga javob berishida qiyinchilik tug‘dirdi. Keyinchalik bolangiz tarbiyasida bunday muammolarni bartaraf etishga bel bog‘lang. U bilan ko‘proq shug‘ullaning va dars tayyorlashiga yordam bering. Sersavol kichkintoyning har bir savoliga diqqat-e’tibor, sabr bilan javob bering. Shunda farzandingiz o‘z fikrini erkin bayon etib, muloqotga tortinmay kirisha oladi.

OLTI YOSHLI BOLANI MAKTABGA BERMOQCHIMISIZ? SHOSHILMANG, CHUNKI...

Navbatdagi o‘quv yili ham nihoyasiga yetib bormoqda. Ammo maktabga chiqish yoshida bo‘lgan bolajonlar uchun imtihonli davrlar yaqinlashmoqda. Bugungi kunda aksariyat 6 yoshli bolalarning ota-onalari farzandini maktabga chiqarish yoki chiqarmaslik haqida o‘ylayotgani sir emas. Chunki ko‘pchilik ota-onalar 6 yoshli bola hali maktabga tayyor bo‘lmaydi, deb xulosa qilsa, ayrimlar “bir yil bo‘lsa ham oldinroq chiqsin, eplab ketadi», deya fikrlaydi. Ammo bu tushunchalar qanchalik asosli? Xo‘sh, olti yoshli bola 1-sinfga qabul qilinishga tayyor bo‘ladimi?

QACHON TAYYOR HISOBLANADI?

Tibbiy jihatdan sog‘lom bo‘lgan bolada maktabga ijtimoiy psixologik tayyorlik darajasi, diqqati, ko‘rish qobiliyati, mantiqiy tafakkuri, kichik qo‘l motorikasi, xotirasi, matematik va fazoviy tasavvurlari, og‘zaki nutqi, ilk o‘quv motivlari shakllangan bo‘lishi kerak. Shuningdek, shakl, element, yozuvlarni xuddi o‘ziday qilib ko‘chirishni bilishi, o‘qib berilgan 10-12 ta so‘zni esda saqlab takrorlashi, rasm asosida mantiqli hikoya tuza olishi, predmetlarni ko‘p yo ozligi, sonlarning katta-kichikligini, predmetlarni guruhlashtirish, umumlashtirish, taqqoslashni hamda qismlardan butun yasashni bilishi kerak. Agar bola berilgan rasm asosida mantiqli hikoya tuza olmasa, o‘qib berilgan so‘zlarni esida saqlab qola olmasa va boshqa shu kabilarga tayyor bo‘lmasa, bu bolaning maktabga chiqqan paytida o‘qish va yozishlarni yaxshi o‘zlashtira olmasligiga, aqliy ishchanligining pasayishiga, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda qiynalishiga olib keladi. Buning natijasida bolada stress, tajovuzkorlik, injiqlik, uyqusizlik, ishtahaning yo‘qolishi, jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklar, bo‘y o‘sishining orqada qolishi, kamqonlik kabi holatlar kuzatilib, bola sog‘ligining yomonlashuviga, hattoki maktabga moslasholmay, maktabdan chiqib ketishiga olib keladi.

Shuningdek, bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch, qat’iyatlilik o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni yengish kabi sifatlar shakllangan bo‘lishi kerak. Bulardan tashqari o‘zi, ota-onasi va oila a’zolarining ismi, familiyasi, ularning kim bo‘lib ishlashlari, turar-joy manzili hamda necha

yoshdaligi, bir yildan, ikki yildan keyin necha yoshga to‘lishini bilishi va boshqa shu kabi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak.

Maktabning o‘ziga yarasha tartib qoidalari, ta’lim talablari mavjud bo‘lib, maktabga qabul qilingan 6, 7 yoshli bolalar bu talablarga bir xil amal qiladi. O‘quv faoliyatini yaxshi natijalar bilan o‘zlashtirishi, aqliy ishchanlik, tengdoshlari bilan muloqotchanlik, maktab tartib qoidalariga amal qilish kabi holatlarga bola ruhiyati tayyor bo‘lishi kerak.

1-sinfga borish bola hayotining eng muhim davrlaridan biridir. Ilk o‘quv kunlarida o‘quvchilarning ko‘pchiligida stress holatlari yuzaga kelib, bu davrda ruhiy kechinmalar ustunlik qiladi. Bu ruhiy kechinmalarni yengish boladan kuchli iroda (o‘ziga bo‘lgan ishonch, qat’iyatlilik, yuksak maqsad v.h.) ni talab qiladi.

Yuqoridagi jarayonlar bolada yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, bu bola ruhiyati va sog‘ligiga ta’sir qilib, salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

MAKTABGACHA TA’LIM JARAYONIGA QAMRAB OLINMAGANLAR QIYNALADIMI?

Bolalar bog‘chasiga borgan bolalarda o‘quv faoliyati, kirishimlilik, shaxslararo munosabatlar yaxshi shakllangan bo‘lib, ularning o‘yin faoliyatidan o‘qish faoliyatiga o‘tishlari oson kechadi. Uyda tarbiyalangan bola esa, faqat oila a’zolari, yaqin kishilari atrofida yashagani sababli, uning o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga o‘tishi, notanish muhit, noodatiy holat va tartib-qoidalarga o‘rganishi qiyin kechadi, tengdoshlari bilan munosabatlarda ziddiyatlar kelib chiqishi

mumkin. Bunday bolalarda dadillik yetishmay o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, tortinchoqlik ustunlik qilishi sabab, begona muhitda moslashuvlari qiyin kechadi va tengdoshlari bilan tez chiqisha olmaydilar.

YUZAGA KELISHI MUMKIN BO‘LGAN SALBIY OQIBATLAR:

- bolaning asab tizimi tez charchaydi va toliqadi;
- sog‘liqning yomonlashuvi, kamqonlik, bo‘y o‘sishining orqada qolishi holatlari kuzatiladi;
- bola, agressiv, jahldor bo‘ladi,
- aqliy ishchanlik darajasining pastligi kuzatiladi ;
- o‘qituvchi topshiriqlarini tez bajara olmaydi;
- yozuv, o‘qish, matematikani o‘qitishda, guruhiy topshiriqlarni bajarishda jiddiy qiyinchiliklar kelib chiqib, idroki yetarli darajada rivojlanmaydi;
- kichik qo‘l motorikani rivojlanishida, yozuvni o‘rganishida qiyinchiliklar vujudga keladi;
- tengdoshlari bilan muloqatchanlikda muammolar vujudga keladi, tengdoshlari bilan tez chiqishib keta olmaydi;
- diqqatini jamlashda qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, beqaror diqqat ustunlik qiladi;
- maktabga moslashuvida, o‘qishni o‘rganishida qiyinchiliklar yuzaga keladi;
- tafakkur jarayonlari yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli, nutqning buzilish holatlari kuzatiladi;

- bilim va malakalar ko‘lamining yetarli emasligi tufayli, o‘qitishning boshlang‘ich bosqichlarida bir necha qiyinchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi;
- o‘quv yili mobaynida faoliyat buzilishi (eshituv, motor koordinatsiyasini buzilishi) ortib boradi;
- o‘qishning birinchi yili yakuniga kelib kuchayuvchi muammolarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, boladan bolaligini olib qolmasdan, uni 7 yoshdan maktabga berishni tavsiya etamiz. Bola maktabgacha yoshida “o‘yinga to‘ymasa”, unga “majburan” o‘qish, yozish, sanoqni o‘rgatish samarasizdir, chunki o‘yin bola hayotida yetakchi faoliyat turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Taqdim etilgan ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, agar farzandingiz endigina 6 yosh qadam qo‘ygan-u, siz uni maktabga chiqarish niyatida bo‘lsangiz, yaxshilab tahlil qiling. “Eplab ketadi” yoki “bir yil oldinroq chiqsa, vaqtdan yutadi” degan fikrlar bilan tibbiy jihatdan nosog‘lom va psixologik jihatdan maktabga tayyor bo‘lmagan 6 yoshli bolangizni majburan 1-sinfga chiqarishingiz uning organizmi rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Chunki farzandingiz 1-sinfga qabul qilindimi, barcha tartiblar asosida uning ta’lim olishini ta’minlashingiz kerak. Agar uning o‘zida bunga ishtiyoq va tayyorgarlik bo‘lmasa, u ham aqlan, ham jismonan zo‘riqadi. Bu holat esa o‘z navbatida uning ham ruhiyatiga, ham salomatligiga salbiy ta’sirini ko‘rsatishi ehtimoldan yiroq emas. Lekin bu borada oxirgi qarorni baribir ota-onaning o‘zi qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016- yil 29- dekabrdagi PQ–2707-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PF–5198-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-maydagi PQ–4312 –son qarori.

5. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018

6. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2018.

7. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016–279b.

8. Tolipov O‘, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006 – 163 b.

9. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2010.